MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 2-SON

ASLIYAT Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

QO‘QON MADANIY MUHITI AMERIKALIK DIPLOMAT VA SAYYOH YUJIN SKAYLER NIGOHIDA

Shavkat Bobojonov,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim mudiri, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
bobojonovsh2020@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-9216-8672

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoga sayohat qilgan amerikalik diplomat va olim Yujin Skaylerning “Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo‘qon, Buxoro va G‘uljaga sayohat qaydlari” asari ilmiy-tarixiy manba sifatida tahlil etilgan. Muallifning sayohat qaydlari orqali Qo‘qon xonligi va Uchqo‘rg‘on hududining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, hunarmandchilik turlari (jumladan, qog‘oz tayyorlash va qamchinsozlik), bozorlar tuzilishi hamda mahalliy aholining etnik tarkibi yoritilgan. Shuningdek, mahalliy aholining urf-odatlari, sovg‘a-salom berish madaniyati va bahor mavsumida o‘tkaziladigan jamoaviy “darveshona” marosimining kelib chiqishi hamda mohiyati ilmiy jihatdan ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Turkiston, Qo‘qon, hunarmandchilik, qog‘oz ishlab chiqarish, bozor, etnik tarkib, an’analar, sovg‘a-salom madaniyati, darveshona marosimi, sayohatnoma.*

Аннотация. *В данной статье в качестве научно-исторического источника анализируется труд американского дипломата и учёного Юджина Скайлера «Туркестан: путевые заметки о Русском Туркестане, Коканде, Бухаре и Кульдже», посетившего Центральную Азию во второй половине XIX века. На основе путевых записок автора освещаются социально-экономическая жизнь Кокандского ханства и территории Учкургана, различные виды ремесленного производства (в том числе изготовление бумаги и плетей), организация местных рынков, а также этнический состав населения. Кроме того, с научной точки зрения рассматриваются обычаи и традиции местного населения, культура преподнесения подарков и подношений, происхождение и сущность коллективного обряда «дарвешона», проводимого в весенний период.*

Ключевые слова: *Туркестан, Коканд, ремесленничество, производство бумаги, рынок, этнический состав, традиции, культура дарения подарков, обряд «дарвешона», путевые заметки.*

Abstract. *This article analyzes the work “Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Kokand, Bukhara, and Kuldja” by the American diplomat and scholar Eugene Schuyler, who traveled to Central Asia in the second half of the nineteenth century, as a scholarly and historical source. Based on the author’s travel accounts, the study examines the socioeconomic life of the Kokand Khanate and the Uchkurghan area, various traditional crafts (including papermaking and whip-making), the organization of local markets, and the ethnic composition of the population. Furthermore, the article provides a scholarly examination of local customs and traditions, gift-giving practices, and the origins and cultural significance of the communal Darveshona ritual traditionally performed during the spring season.*

Keywords: *Turkistan, Kokand, handicrafts, papermaking, markets, ethnic composition, traditions, gift-giving culture, Darveshona ritual, travelogue.*

Markaziy Osiyoning geografik joylashuvi, Sharq va G‘arb davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarda tutgan o‘rni, maftunkor tabiati, butun dunyoga mashhur tarixiy-me’moriy yodgorliklari, mahalliy aholining takrorlanmas milliy o‘zligi, qadriyatlari, an’analari, kundalik turmushi haqidagi qimmatli ma’lumotlar mintaqaga tashrif buyurgan sayyohlar va elchilar yozib qoldirgan esdalik va kundaliklar, sayohatnoma va safarnomalar orqali yetib kelgan. Amerikalik diplomat, olim va sayyoh Yujin Skaylerning Turkiston asari shunday manbalar sirasiga kiradi.

Skayler o‘z diplomatik vazifalarini ilmiy tadqiqotlar va sayohatlar bilan faol ravishda qo‘shib olib borgan. U Buyuk Pyotrning tarjimai holini yozishni boshlagan va Sankt-Peterburgdagi Rus geografiya jamiyatining yig‘ilishlarida tez-tez qatnashgan. 1873 yilda u Rossiyaning O‘rta Osiyodagi yangi mulklariga tashrif buyurishga taklif qilingan ilk chet elliklardan biri bo‘lgan.

Skayler 1873-yil 23-martda Sankt-Peterburgdan yo‘lga chiqib, dastlab poyezdda Saratovga yetib borgan. Unga “Nyu-York Gerald” gazetasida ishlovchi amerikalik jurnalist Yanuariy Mak-Gaxan hamrohlik qilgan. Skayler va Mak-Gaxan Saratovdan Orenburgga, keyin Kazalinsk va Perovskiy portigacha borishgan. Shu yerdan Mak-Gaxan rus armiyasini izlab Xivaga yo‘l olgan, Skayler esa Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo‘qonga borgan. U Peterburgga Sibir va Ural orqali qaytib kelgan. Uning sayohati sakkiz oy davom etgan. Sayohati haqida “Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo‘qon, Buxoro va G‘uljaga sayohat qaydlari” (1876) nomli sayohat taassurotlari kitobini yozgan, unda xususan shunday degan edi: “Men Rossiyada shunchalar uzoq yashadim va shunchalik ko‘p do‘stlar orttirdimki, bu mamlakatga va uning xalqiga nisbatan faqat va faqat eng iliq tuyg‘ularni his qilaman” [1].

Asar ikki jilddan iborat bo‘lib shu yili Nyu-York va Londonda nashr etiladi. Kitobning birinchi jildida diplomat Rossiyadan Markaziy Osiyo tomon o‘zangan kengliklar, jumladan, Volga daryosidan boshlangan yo‘li va undan o‘tib Markaziy Osiyoga kirib borishini tasvirlaydi. Kitob geografiya emas, balki musulmon hayoti, bozorlar va savdo, tashrif buyurgan manzillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, iqtisodiy turmush, milliy-etnik tarkib yoritilgan[2, 48].

Kitobda Qo‘qon va uning ijtimoiy-madaniy hayotiga alohida qism ajratilgan. Qo‘qonning benazir yuksakligidan biri - shundoqqina yonginasida qog‘oz ishlab chiqaruvchi sex joylashgan. O‘rta Osiyoda ishlatiladigan qog‘ozning hammasi bo‘lmasa ham, ko‘pi shu yerda yoki kichik Chorku qishlog‘i hamda Qo‘qonda tayyorlanadi. Xomashyo toki qalin qog‘ozga aylanguncha, galma-gal yanchilib hamda tuyilib, so‘ngra suvli yog‘och bochkaga olinib, birgalikda aralashtiriladi. Qog‘oz tayyorlovchi usta tarang qilib tortilgan ingichka uzun g‘alvirni olib, uning ustiga ma’lum miqdordagi xom ashyoni qo‘yadi. Yuza bo‘ylab bir tekis bo‘lguncha silkitib turadi. So‘ngra uni bir muddat doskaga qo‘yadi. Qavat-qavat ustma-ust quyilib, suvini ketkazish uchun kuch bilan sikiladi va shu zaylda bir kishi kun davomida 300 varaqni tayyorlashi mumkin. Ertalab olinib, qurishi uchun oftobga qaratib osib quyiladi. Bozorda turli ishchilar tomonidan o‘lcham va silliqlash amalga oshiriladi. Odatda qo‘llaniladigan o‘lchami liliya oilasiga kiruvchi sirach o‘simligi

ildizining kraxmalidan, silliqlash uchun esa yassi va og‘ir tosh bilan uriladi. Shu yo‘l bilan tayyorlangan qog‘ozning bahosi ikki baravar oshadi.

Olim bozorlar masalasiga ham to‘xtalib o‘tgan. Qo‘qondagi asosiy bozor O‘rta Osiyoda ko‘rganim yaxshi qurilganlaridan yiroq bo‘lsa ham, juda gavjum, barcha ko‘chalari boshqalari bilan to‘g‘ri kesishgan, pishiq g‘ishtdan qurilgan ko‘plab do‘konlari mavjud. Ko‘chalar ancha keng, barcha uylarning tomi baland yog‘och bilan yopilib, shu tariqa bozor soyada bo‘lib, toza havo yon taraflardan kelardi. Ikki yil burungi yong‘indan so‘ng bozorning bir qismi avvalgidan ham yaxshiroq ta’mirlangan. Bu yerda haftaning ikki – payshanba va yakshanba kunlari bozor bo‘lib, savdo-sotiq ancha qizg‘in olib borilgan[3, 256].

Bozor o‘rtasida yashagani sababli Y.Skayler u yerda aylanib yurish, turli hunarmandchilik va savdo turlarini kuzatish uchun ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘lgan. Biroq u yerda Toshkentdagidan yangi yoki farq qiladigan hech narsa yo‘qligi, sotilayotgan mollarning sifati ham ustun emasligi, faqat egar-jabduq qamchinlari bundan mustasnob ekanligini ta’kidlaydi. Qamchinlarning a’lo sifatli turlari Qo‘qonda yasalib, juda arzon narxda sotilishini e’tirof etadi[4, 15].

O‘troq aholi asosan o‘zbeklar; ammo Qo‘qon va g‘arbiy viloyatda tojiklar ko‘p, yana O‘rta Osiyoning barcha yirik shaharlarida bo‘lgani kabi yahudiylar, hindlar va ba’zan ozroq afg‘onlar ham istiqomat qilishgan.

Amerikalik sayyoh Uchqo‘rg‘onda ko‘rgan kechirganlarini ham bayon etadi. Uning ta’kidlashicha, Uchqo‘rg‘ondagi boy odamning xonadonidagi mahalliy hayotni o‘rganish uchun bu juda yaxshi imkoniyat edi, chunki xizmatkorlarning soni ko‘p edi. Bir burchakda uch-to‘rt nafar oshpaz kun bo‘yi qo‘y so‘yish va chopish, guruch yuvish va palov damlash bilan band edi. Chunki Rahmat Ullohbek o‘z oshxonasidan ovqatlantirishi kerak bo‘lgan 200 nafar askardan iborat soqchilar qo‘shinini saqlar edi. Shuningdek, parvarish qilinishi kerak bo‘lgan otlar bor edi. Bir qariya va ikki bola boshqa otni kutib, ovqatlantirilishi, mashq qilinishi va o‘ynatilishi kerak bo‘lgan uchta lochinni parvarish qilish bilan shug‘ullanar edi[4, 27].

Asarda Markaziy Osiyodagi, xususan, Qo‘qon xonligi va Toshkent atrofidagi mahalliy urf-odatlar, xususan, sovg‘a-salom berish va olish madaniyati hamda o‘zaro munosabatlardagi o‘ziga xos jihatlar haqida ma’lumot beriladi. Y.Skaylerning qayd etishicha, Markaziy Osiyoda kishiga sovg‘a berilganida u darhol “rahmat” demas ekan, faqatgina atrofdagilar uni sovg‘a olgani bilan tabriklagandagina, ana shu tabriklar uchun minnatdorlik bildirishgan. Mehmondo‘stlik yoki biror xizmat evaziga beriladigan qimmatbaho haqlar mustasno. Bu yerdagi sovg‘a-salom berish an’anasi ko‘pincha odamlarga katta tashvish va malol keltirishi ta’kidlangan. Sovg‘ani rad etish odamning ko‘nglini og‘ritishi mumkin, lekin uni qabul qilgan odam tez orada undan kami bo‘lmagan yoki undan ham qimmatbahoroq sovg‘ani qaytarishi shart bo‘lgan.

Qo‘qonda o‘tkaziladigan marosimlar olim e’tiboridan chetda qolmagan. Har bahor Qo‘qon tashqarisida darveshona degan ommaviy marosim bulib, har bir guruh xonni muborakbod etishi damda unga pul hadya etishgan U 100 tilladan 1000 tilla (45 funt sterlingdan 450 funt sterling)gacha miqdorni tashkil etgan.

Darveshona – O‘rta Osiyo xalqlari orasida bahor faslida o‘tkaziladigai jamoaviy marosim hisoblanadi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, xar yili bahor faslida qishloqlarda va shahar mahallalarida 2-3 kishi uyma-uy yurib, pul yoki oziq-ovqat to‘plashgan, so‘ngra biror kishiiing hovlisida yoki masjidda ovqat pishirib, butun maxalla bilan baham ko‘rishgan. Marosim biror ofat bo‘lganda (kasallik tarqalgaida, ocharchilik boshlanganda) undan xalos bo‘lish yoki dehqonchilikda mo‘l hosil tilash va boshqa niyatlarda Allohdan madad so‘rash mazmunida o‘tkazilgan. Mazkur marosim darveshlar odatiga o‘xshab uyma-uy yurib oziq-ovqat yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgani uchun darveshona (darveshlarga o‘xshab) deb nom olgan[3, 274]. Darveshona marosimi janubiy hududlarda (hozirgi Surxondaryo, Qashkadaryo, Samarqand viloyatlarining ba’zi qishloqlarida) dalalarda, tog‘ yonbag‘irlariga chiqib o‘tkazilgan va u dehqonlarning ekin-tikin boshlashidan oldingi o‘ziga xos sayli sifatida uyushtirilib, hozirgacha saqlanib qolgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan amerikalik taniqli diplomat va sayyoh Yujin Skaylerning ikki jildlik “Turkiston” asari mintaqa tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. 1873 yildagi sayohat qaydlari shunchaki sayohatnoma emas, balki o‘sha davr jamiyatining ko‘zgusidir. Asar Qo‘qon xonligi hududidagi qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasi, shaharsozlik va bozorlarning tuzilishi kabi noyob detallarni o‘z ichiga olgan. Xususan, mahalliy hunarmandlarning an’anaviy usulda sifatli qog‘oz va qamchin tayyorlash jarayonlari ilmiy jihatdan aniq tasvirlangan. Mintaqa shaharlarida, jumladan Qo‘qonda o‘zbek va tojiklar bilan birga yahudiylar, hindlar va afg‘onlarning ham istiqomat qilgani ko‘pmillatli va bag‘rikeng muhit mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, Yujin Skaylerning qaydlari XIX asr oxiridagi Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-siyosiy ahvoli, iqtisodiy turmush tarzi va boy madaniy merosini xolisona o‘rganishda eng ishonchli va qimmatli tarixiy manbalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иванян Э.А. Энциклопедия российско-американских отношений. XVIII-XX века.. – М.: Международные отношения, 2001.

2. Хўжанов Б.А. Южин Скайлер – Марказий Осиёни кашф этган биринчи америкалик сиёсатчи // Замонавий халқаро муносабатларда Марказий Осиё: барқарорлик ва тараққиёт истиқболлари. Конфернция материаллари. – Тошкент, 2026.

3. Скайлер Ю. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019.

4. Schuyler E. Turkistan notes of A journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja. – New York: Scribner, Armstrong & Co, 1877.